

O‘QUVCHILARDA GEOEKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH
MUAMMOSINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Sodiqjanov Bekzot Farxod o‘g‘li

*Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini
oshirish markazi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya. Biz yashayotgan asr insoniyat tarixida, inson faoliyati va madaniyatining qadriyat-kognitiv asoslarini barqaror rivojlanish yo‘nalishida, tubdan qayta qurish bilan bog‘liq sifat jihatidan yangi bosqich, deya baholanmoqda. Shu munosabat bilan ilmiy bilimlarning tabiiy va ijtimoiy-gumanitar sohalarida sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishi masalasi markaziy o‘rin egallamoqda. Ilmiy doiralarda, insoniyatning barqaror taraqqiyot yo‘liga o‘tishning nazariy va uslubiy asoslari yaratilmoqda.

Ushbu maqola umumta‘lim maktab o‘quvchilarining geoekologik madaniyatini shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, muallifning tadqiqot ishlari davomida olib borilgan o‘rganish va tahliliy ishlari natijasi ularoq, ilmiy xulosalar va amaliy kuzatuvlarining muxtasar yoritilishi bilan e‘tiborlidir. Unda keltirilgan taklif va mulohazalar maktab ta‘limida sinovdan o‘tkazilgan chora-tadbirlar umumlashuvi hisoblanib, ilmiy-uslubiy xarakterga egadir.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, geografik madaniyat, geoekologik madaniyat, ekologik ta‘lim, geografik ta‘lim, ekologik gumanistik g‘oyalar, zamonda ekologik muammolar, koevoluyion g‘oyalar, pedagogik usul va metodlar.

Аннотация. Век, в котором мы живем, считается качественно новым этапом в истории человечества, в направлении устойчивого развития ценностно-познавательных основ человеческой деятельности и культуры, в плане коренного переустройства. В связи с этим вопрос устойчивого развития цивилизации в естественной и социально-гуманитарной областях научного знания занимает центральное место. В научных кругах создаются теоретические и методологические основы перехода на путь устойчивого развития человечества.

Данная статья посвящена вопросам формирования геоэкологической культуры школьников и отличается кратким освещением научных выводов и практических наблюдений, ставших результатом исследовательской и аналитической работы автора. Изложенные в нем предложения и мнения считаются обобщением апробированных мер в школьном образовании и имеют научно-методический характер.

Ключевые слова: экологическая культура, географическая культура, геоэкологическая культура, экологическое образование, географическое образование, эколого-гуманистические идеи, современные экологические проблемы, коэволюционные идеи, педагогические методы и методики.

Annotation. *The century we live in is considered a qualitatively new stage in the history of mankind, associated with a radical restructuring of the value-cognitive foundations of human activity and culture in the direction of sustainable development. In this regard, the issue of sustainable development of civilization is taking center stage in the natural and socio-humanitarian spheres of scientific knowledge. In scientific circles, theoretical and methodological foundations for the transition of humanity to the path of sustainable development are being created.*

This article is devoted to the issues of forming the geoecological culture of secondary school students and is notable for its concise coverage of scientific conclusions and practical observations, as a result of the author's research and analytical work. The proposals and considerations presented in it are a generalization of measures tested in school education and have a scientific and methodological character.

Keywords: *ecological culture, geographical culture, geoecological culture, ecological education, geographical education, ecological humanistic ideas, environmental problems in our time, coevolutionary ideas, pedagogical methods and techniques.*

KIRISH.

Yangilanayotgan zamonaviy fan sifatida e’tibor qozonayotgan ekologiyaga o’tish jarayoni prinsipial jihatdan yangi integrativ ilmiy yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bu sohaga atrof-muhitga yo‘naltirilgan bilim sohalari ham kiradi. Shu ma’noda geografik bilimlar va ekologik gumanistik g‘oyalarga asoslangan barqaror rivojlanish nazariyasi sintezi natijasida vujudga kelgan geoekologiyaning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi vaqtda jamiyat va tabiat o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar, qator ekologik va geografik muammolarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarning paydo bo‘lishi, tabiiy-geografik fanlar uchun integrativ, fanlararo ahamiyatga ega bo‘lgan geografik va ekologik madaniyatni yanada chuqurroq o‘rganish zarurligi yangicha ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, bugungi kunda, insonning tabiatga kirib kelishining salbiy oqibatlarini oldini olish uchun, oqibat ekologik va geografik muammolarga olib keladigan bir qator ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, pedagogik, iqtisodiy masalalar yechimini topish taqozo etilmoqda. Bugungi zamonda ekologik muammolarning o‘ziga xos dolzarblik kasb etishi tufayli pedagogika fani ilmiy tadqiqotlari doirasida, kam o‘rganilgan, maktab o‘quvchilarining mushtarak geografik-ekologik madaniyatini shakllantirish masalasi, ilmiy muammo sifatida maydonga kirib kelmoqda.

Ma’lumki, ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biri bu kelajakda geografik va ekologik madaniyatning yuqori darajasiga ega bo‘lgan, muntazam o‘zini o‘zi rivojlantirishga, jamiyat taraqqiyotiga va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga yo‘naltira oladigan, koevolyusion g‘oyalarini idrok etish va amalga oshirishga hamda insoniyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qodir bo‘lgan shaxsni shakllantirish vazifasidir. Ushbu vazifani hal qilishning muvaffaqiyati juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida yosh avlodning geoekologik bilimlarini amalda geoekologik madaniyatga yo‘naltirish davri muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, pedagogik shart-sharoitlar doirasida

maktab o‘quvchilarining geoeologik madaniyatini shakllantirish bosqichlari alohida e’tiborga molik.

ASOSIY QISM

Turli muhit sharoitlarining ta’siri ostida ta’lim oluvchi ongining shakllanishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining, ya’ni ta’lim beruvchining maqsadli harakatlariga bog‘liq. Bu yerda amaliy mashg‘ulotlarning ma’nosini ochib beradigan, mehnat va tabiat haqidagi suhbatlar va ma’ruzalar, badiiy ijod, mukofot va jazolar, raqobat va o‘qituvchining shaxsiy namunasi haqidagi burchni tushuntirish va har bir insonni atrof-muhitga nisbatan shaxsiy g‘amxo‘rlik qilish zarurligiga ishonitirish, xulq-atvorga qo‘yiladigan talablar va unda ishtirok etishning turli pedagogik usul va metodlar qo‘llanilishi juda muhim. O‘quvchilarning tabiatga ongli, mas’uliyatli munosabatini shakllantirish masalasi dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida maktab ishida rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishning barcha sohalariga, ya’ni umumiy maktab rejalari va sinf rahbarlarining hujjatlariga, o‘quvchilarning g‘oyaviy-siyosiy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tayyorgarligi tizimiga kiritilishi kerak.

“Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi”ga ko‘ra, bugungi ta’lim tizimi dasturlari jahondagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan [1]. Demak, geoeologik madaniyatni shakllantirish jarayonida, uning ekologik qismida muammolar borligi inobatga olinishi lozim. Ma’lum ma’noda, qayd etilgan nomuvofiqlik, tabiiy muhit masalasi bilan bog‘liqligi, aynan geografik bilimlar, geografik madaniyat va ekologik madaniyatni integratsiyasi nechog‘lik muhim ekanligini ifoda etadi.

Ma’lumki maktab o‘quvchilari tabiatni o‘rganish va himoya qilish bo‘yicha ishlarda faol ishtirok etib, hududga egalik qilish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va yangilash borasida g‘oyalarga ega bo‘lishi lozim. Aslida, har bir insonning xulq-atvor me’yoriga aylanishi lozim bo‘lgan madaniyat omillari, jumladan, ekologik madaniyat, unga bolaligidan tanishtirilishi zarur, ya’ni tabiatni asrashga bo‘lgan mas’uliyat tuyg‘usini maqsadli ravishda shakllantirish, tabiiy muhitni saqlash muammosini idrok etish bo‘yicha faol hayotiy pozitsiyasi tadrijiy to’sda shakllanib borishi kerak. Maktab o‘quvchisining tabiiy muhitga munosabati asosan uchta omil orqali tarbiyalanadi. Birinchisi, tabiatni bevosita bilish orqali, ikkinchisi maktabda yo‘lga quyilgan geografik va ekologik ta’lim orqali, uchinchidan, ommaviy axborot vositalari ta’siri ostida [2].

Shu nuqtai nazardan, aytish mumkinki, maktab o‘quvchilarining geografik-ekologik madaniyatini shakllantirish muammosini o‘rganish chog‘ida, masalaning shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon talablari bilan zamonaviy maktab oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifalar aloqadorligi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Shuning uchun, maqolada, tadqiqot davomida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining ayrim umumlashtirilgan xulosalari bo‘yicha ham mulohazalar keltiriladi.

Alohida qayd etish lozimki, geografik va ekologik madaniyat shaxsning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy ongining muhim ko‘rsatkichidir va agar ushbu postulat maktab o‘quvchilari ongiga qanchalik ko‘proq singdirilsa, uning natijadorlik darajasi ham yuqori bo‘ladi. Binobarin, ushbu yo‘nalishda va shu mazmunda maktablarda o‘qituvchilar va sinf

o‘quvchilari uchun tegishli tavsiyalarining yo‘qligi bois, o‘quvchilarning ekologik va geografik madaniyatini shakllantirish jarayoni katta qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatiladi.

Muhokama va natijalar.

Ma’lumki, ekologik ta’lim o‘zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Unga geografik bilimlarning transformatsiyasi, endi maktab o‘quvchilarining faoliyatidagi ko‘p qirrali qobiliyatlarning namoyon bo‘lishini talab qiladi va bunga zamin yaratadi. Shuning uchun o‘quvchilar tabiatni o‘zgartirganda yoki asrashga intilganda, ularga tabiat g‘amxo‘rlik va mehnat ob’ekti bo‘lib qoladi.

O‘quvchilarning voqelikka munosabatini shakllantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni ta’minlash maqsadida maktabda bolalarning tabiat qo‘ynidagi mehnat, kognitiv, eksperimental, badiiy, o‘yin, turizm, o‘lkashunoslik va sport-sog‘lomlashtirish tadbirlari tashkil etilishi lozim. Qolaversa, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabat sharoitida ongni shakllantirishga ko‘plab omillar ta’sir qiladi va birinchi navbatda, bu hayotiy tajriba va muloqot sohasi, oila va tengdoshlar manfaati, xatti-harakatlarning shaxsiy va guruh motivlari, jamoatchilik fikri va hokazo.

Maktabdagi geoekologik ta’lim muhiti talablari doirasida, geografik va ekologik madaniyat dialektik o‘zaro bog‘liqlik va birlikda shakllanishi maqsadga muvofiq. Chunki ular mazmunan o‘xshash, voqelik hodisalarini aks ettirish, baholash ob’ekti bo‘lib, umumiy ta’lim funksiyalariga ega [3]. Ushbu xususiyatlar geografik va ekologik madaniyatning aloqasini ikki tomonlama jarayon sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Shunga asosanib aytish mumkinki, geografik va ekologik madaniyat bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator elementlardan tashkil topgan ajralmas tizim hisoblanadi. Geografik va ekologik bilimlarning umumiy tizimidagi komponentlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- kognitiv, qadriyatli, me’yoriy, amaliy yondashuv;
- geografik va ekologik tafakkurda sabab-oqibat, ehtimollik, prognostik va boshqa turdagi aloqalarni o‘rnatish;
- tuyg‘ular madaniyati – empatiya, fuqarolik xulq-atvori hissi, vatanparvarlik va tabiat hamda jamiyatdagi boshqa bir qator jarayon va hodisalarni talqin qilish;
- atrof-muhitdagi odamlarning oqilona axloqiy xatti-harakatlarga yo‘naltirish;
- maktab o‘quvchilari tomonidan geografik fikrlash va geografiya tili bilan, tabiiy va ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini talqin qilinishi;
- ekologik bilimlar, fikrlash va hissiyotlar madaniyatini kundalik harakatlar normasiga aylantirish darajasi bilan tavsiflangan ekologik asoslangan xatti-harakatlar madaniyati;
- ekologik muammolarni hal qilishning kelib chiqishi, mohiyati va usullari to‘g‘risida ogohlik va bashorat qilish imkoniyatlari.

Demak, geoekologik madaniyatning namoyon bo‘lishi bu geoekologik jihatdan mas’uliyatli bo‘lgan faoliyat natijasidir. Shuning uchun, zamonaviy geografik-ekologik ta’lim tabiiy muhitda sodir bo‘layotgan jarayonlar va hodisalar haqidagi zamonaviy bilimlarni mahalliy, mintaqaviy va global miqyosda ommalashtirish va rivojlantirishni belgilaydigan manba hisoblanadi [4].

Tadqiqotimiz davomida, tabiiy-geografik fanlarni o‘rganish orqali geoekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini samarali amalga oshirilishiga imkon beradigan ayrim pedagogik sharoitlar ham ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o‘tkazildi. Ularning natijalari bo‘yicha xulosalar asosida, quyidagi tavsiyalar ham yaratildi:

- maktabning ta‘lim makonida o‘quvchilar geoekologik madaniyatining axloqiy mazmundagi qismini tarbiyalashni tashkil etish, aynan intellektual sohada tabiiy-geografik fanlar tarkibidagi axloqiy komponentni ajratib ko‘rsatish orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- o‘quv dasturlarning ekologik yo‘nalishini axloqiy qadriyatlar asosida amalga oshirish uchun o‘quv jarayonini sinfda va sinfdan tashqari soatlarda tabiiy olamni axloqiy va ekologik idrok etishga tizimli yo‘naltirish zarur;

- axloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan, ekologik xulq-atvorni ongli ravishda tanlash madaniyatini shakllantirishda, geografik bilimlarni atrof-dagi hamma narsaga nisbatan axloqiy his-tuyg‘ular orqali ifoda etib axloqiy xatti-harakatlar rag‘batlantirilishiga zamin yaratish lozim;

- o‘quvchilarining geoekologik madaniyatini shakllantirish modelini amalga oshirish uchun maktab dasturlari doirasidagi tabiiy va geografiya fanlarini o‘rganish jarayonida olingan bilimlarning hayotga tatbiq etilishini ta‘minlash eng muhim pedagogik shartga aylanishi kerak.

Kognitiv yondashuv asosida maktab o‘quvchilariga odamlar sonining ko‘payishi, tabiiy resurslar – suv, mineral xom ashyo, o‘simlik va hayvonot resurslarining shafqatsizlarcha sarflanishi, shuningdek, tobora chuqurlashib borayotgan ekologik tanglik bilan bog‘liq bo‘lgan yerdagi hayotga tahdidlar, insonning tabiatda yashash usullarini tubdan o‘zgartirishni talab qilishi haqidagi g‘oyani hamisha eslatib turadigan muhit yaratilishi davr taqozosiga aylanishi lozim.

Chunki inson hali ham tabiiy resurslarga utilitar tarzda, iqtisodiy qadriyat sifatida qarashni davom etmoqda [5]. Shu o‘rinda, o‘quvchilar tabiiy muhitda sodir bo‘layotgan jarayonlarga inson ta’sir qilishini, ularning ba’zilarini tezlashtirishini, boshqalarini sekinlashtirishini hamda tabiatdagi muvozanatni buzadigan va yerdagi odamlarning yashashiga tahdid soladigan yangi ta’sirlarini keltirib chiqarishini tushunib anglashlari uchun, ta’sirchan pedagogik vositalar, jumladan, eng zamonaviy texnologiyalar, elektron ta’lim va multimediali vositalari, raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi kerak.

Shu bilan birga, tabiiy muhitdagi barcha o‘zgarishlarni, hatto jamiyat ehtiyojlari nuqtai nazaridan salbiy o‘zgarishlarni ham faqat insonga bog‘lash mumkin emas. Shunda, ekologik muammolarni bir tomonlama ko‘rib chiqishga nuqta quyilishi mumkin bo‘ladi. Shuning uchun, ekologik ta’lim mazmunini jamiyatning umumiy va mahalliy miqyosdagi atrof-muhitning tahdidlari, ifloslanishi va yo‘q qilinishiga oid turli misollar bilangina cheklash mumkin emas, balki umumiy muammolarda inson omilidan tashqari boshqa omillarni ham chuqur o‘rganilishi va oldini olish bo‘yicha tegishli ilmiy asoslangan choralar ishlab chiqilishi lozim bo‘ladi. Tabiiyki, bunda pedagogika va psixologiya fanlari ham faol tadqiqot ishlarida ishtirok etishi talab qilinadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, qayd etish zarurki, geoeologik madaniyatni shakllantirishda, umuman maktab va xususan tabiatshunoslik fanlari o‘qituvchilarining o‘ziga xos vazifalarini quyidagicha sanab o‘tish mumkin:

- tarbiyaviy ishlar mazmunini o‘quvchilarning tabiatga, mehnat ahliga bo‘lgan hurmatini va Yer yuzini himoya qilish istagini rivojlantirishga qaratish;
- o‘quvchilarning o‘z ona yurti tarixi, uning madaniy merosi, xalq an‘analari va urf-odatlariga qiziqishini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- o‘quvchilarning geoeologik madaniyatini shakllantirishda xalq an‘analari, urf-odatlari, an‘anaviy bayramlariga samarali ta‘lim vositasi sifatida murojaat qilish imkoniyatidan foydalanish.

O‘quvchi shaxsining geoeologik madaniyatini shakllantirishning samarali vositasi o‘quvchilarni geografik va ekologik xarakterdagi sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga muntazam ravishda jalb qilishdir, bu bolalarning faoliyat sub’ekti sifatida tabiiy muhit bilan ko‘p tomonlama o‘zaro ta’siridagi faolligini nazarda tutadi va inson hayotida tabiat bilan munosabat gumanistik axloqiy pozitsiyani shakllantirishga, ya’ni insonning ham, tabiatning ham farovonligi ustuvor ahamiyatga ega ekanligiga ishonitiruvchi omilga aylanadi [6].

Anketa-so‘rovnoma orqali o‘tkazilgan diagnostik tadbirlarning natijalariga ko‘ra, ekologik-geografik mazmundagi sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning barcha turlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, o‘quv jarayoniga ekologik-geografik xarakterdagi turli xil maxsus kurslar va to‘garaklarni kiritish, maktablarda yanada ko‘proq va xilma-xil pedagogik shart-sharoitlarga murojaat qilishni taqozo etadi. Bunda o‘qituvchilarning ta‘lim texnologiyalaridan imkon qadar keng foydalanishlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Zero, o‘smirlarning turli eksperimental tadqiqotlarda, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarida ishtirokini faollashtirish, turli geografik va ekologik to‘garaklar, lagerlar va boshqalarni qiziqarli tashkil etish uchun, ularga kuchli motivatsiya va rag‘bat omillarining rangbarangligi lozim bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari o‘laroq eksperimental ish davomida o‘tkazilgan suhbatlar, so‘rovnomalar, kuzatishlar, o‘quvchilar bilan sinfda va sinfdan tashqari suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, ishonchli natijalarga erishish, ishlab chiqilgan metodologiyaning sifati va ta’sirchanlik darajasiga chambarchas bog‘liq ekan. Chunki metodologiyaning shaxsga yo‘naltirilgan omillari barqaror geografik-ekologik madaniyat tizimini shakllantirishga yordam beradi, atrofda voqelikka nisbatan shaxsiy qarashlar, fazilatlarini tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatga nisbatan inson faoliyati natijalarini ijobiylik to‘sga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Bugungi talablardan kelib chiqib, xalq ta’limi tizimida ekologiyaning nazariy asoslariga oid bilimlar va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga geografik bilimlar va geografik madaniyatni o‘zaro transformatsiyasi asosida geoeologik madaniyatni shakllantirish masalasi, mavjud o‘quv fanlari mazmunida uzviylik asosida berilishiga erishish taqozo etilmoqda. So‘nggi yillarda nashr etilayotgan 1-6 sinflar uchun mo‘ljallangan tabiiy fanlar darsliklarini misol keltirish o‘rinli. Jumladan, 6-sinf Tabiiy fanlar darsligida berilayotgan bilimlar, aynan geoeologik madaniyaning mustahkam poydevorini yaratishga yo‘naltirilgan.

Darslikning Kirish qismida, fikrimizni isbotini ko‘rish mumkin. Unda shunday keltirilgan: “Darslikda berilgan o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar sizda tabiiy va ijtimoiy muhit holatini tushunish, atrof-muhit va inson muammolarini anglash, ularning yechimini topishda qarorlarni qabul qila olish ko‘nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Siz 6-sinfda ilmiy tadqiqot apparati, uni rejalashtirishni o‘rganasiz. ... Inson va tabiat o‘rtasida ajralmas bog‘liqlik mavjudligini, tabiatning bir komponentining o‘zgarishi, albatta, boshqa tarkibiy qismlarning o‘zgarishiga olib kelishini tushunasiz. Siz biologik, fizik, geografik va kimyoviy qonunlar olamiga kirib borasiz va tanangizning ba’zi sirlarini kashf etasiz, zamonaviy texnologiyalar bilan tanishasiz. Berilgan topshiriqlarni becam-u ko‘st bajarishingiz kelgusida shaxs sifatida shakllanish, ilmiy dunyoqarashni kengaytirish va ekologik tafakkurga ega bo‘lishingizga zamin tayyorlaydi” [7].

Shuningdek, shu darslikda, alohida Ekologiyaga bag‘ishlangan bobning o‘rin olganligi, ekologik bilimlarning tabiiy fanlar tarkibidagi zaruriy maqomidan darak berishini ham ta’kidlash joiz. Demak, geoekologik bilimlarini amalda geoekologik madaniyatga yo‘naltirishning ijro choralari, aynan, shunday darsliklarning yaratilishida ko‘rish mumkin.

Ekologik ta’limni sifatli tashkil etish orqali, ekologik tarbiya ham tizimli yo‘lga quyiladi va nihoyat ekologik madaniyat shakllanishiga mustahkam poydevor yaratiladi. Ushbu jarayonlarda o‘qituvchi asosiy va boshqaruvchi sub’ekt sanaladi [8]. Chunki, aynan, pedagog rahbarligida o‘quvchi-yoshlarda tabiatdan foydalanish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Masalan, tabiatni muhofaza qilish faoliyati geografiya, biologiya, kimyo va fizika fanlarini o‘rganish jarayonida olingan tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar bilan belgilanadi. Dalalar va o‘rmon xo‘jaliklari faoliyatida hamda eksperimental va o‘lkashunoslik ishlarida o‘quvchilar tabiatni muhofaza qilishga, o‘simliklar va hayvonlarni asrashga, tabiiy resurslarni ko‘paytirishga faol jalb etiladi. Ularning amaliy faoliyati jami o‘simliklar va hayvonlarni maqsadga muvofiq parvarish qilish, tabiiy resurslarni ko‘paytirishda ishtirok etish, yer va suv manbalarini parvarish qilish, dalalarni va o‘rmonlarni muhofaza qilish tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Bularning barchasida o‘qituvchining o‘ziga xos o‘rni bor.

XULOSA

Geografik-ekologik madaniyat nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish natijasida, umumiy tarzda viloyatlar va xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktab o‘quvchilarini geografik-ekologik o‘qitish sohasida qimmatli nazariy va amaliy tajriba to‘plangan degan xulosaga kelish mumkin. Biroq, bu ish har zamon-har zamon amalga oshiriladi, ya’ni muntazamlik rioya etilmaydi hamda keng tarqalmagan. Qolaversa, ko‘p maktablarda o‘quvchilar geografik bilimlarga ega bo‘lsalar-da ekologik ish bilan shug‘ullanmaydilar yoki u ham vaqtinchalik yoki parokandalik xarakterga ega.

Shuningdek, tadqiqotimiz davomida, o‘rganilgan materialni tahlil qilib va umumlashtirib, biz geografik va ekologik madaniyat ta’rifini shunday sintez shaklda ifoda etishni joiz deb topdik: geografik-ekologik madaniyat – bu inson, jamiyat va tabiatning ijtimoiy-ma’naviy o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi umuminsoniy madaniyatning bir qismi,

ya’ni har tomonlama va uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishga bag‘ishlangan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, jumladan tabiatga insoniy munosabatni, uning taqdiri uchun javobgarlik hissini, eng oliy milliy va umuminsoniy qadriyat – yerdagi hayotning tabiiy va yagona asosi, odamlar ongida va faoliyatida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillarini o‘rnatishni, tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni, muayyan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan hal qilishga yo‘naltirilgan madaniy faoliyat sohasidir.

Binobarin, o‘quvchilar geoeologik madaniyatini shakllantirish masalasi yaxlit bir tizim sifatida, ta’lim tizimidagi pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanib, ta’lim dasturlari, saralangan didaktik ma’lumotlar, metodik ta’minot kabi omillardan tashqari o‘qituvchining kasbiy bilimi va pedagogik mahoratiga hamda o‘quvchilarning faol kognitiv qiziqishlariga ham bog‘lik ekanligini inobatga olishi lozim. Bizningcha, agar:

- maktab o‘quvchilari geoeologik madaniyatini shakllantirish masalasi ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari qatoridan o‘rin olsa, ta’lim va hayot tushunchalarining o‘zaro integrativ mohiyati yanada oydin va maqsadli bo‘ladi;

- fanlararo integratsiyasi doirasida tabiiy fanlar mazmuniga ekologik bilimlarni singdirish orqali, o‘quvchilarda geoeologik madaniyatni shakllantirish jarayonini sifatli va samarali ta’lim natijasiga aylantirish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-son qarori <https://lex.uz/docs/4354743> (murojaat sanasi - 26.03.2023)].

2. Кобылянский В.А. *Философия экологии: общая теория экологии, гео-экология, биоэкология. Учебное пособие.* / В.А. Кобылянский. - М.: FAIR-PRESS, 2003. - 192 s.

3. Kochurov V.I. Новые геоэкологические и социально-экологические понятия // *География в школе.* - 1999. - №3. - S. 10.

4. Komissarov G.S. *Обучающая природа или неформальное геоэкологическое образование* // *География в школе.* - 1995. - № 3. - S. 55.

5. Mustafiev S. *Ekologik tarbiya – milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning ajralmas qismi.* // *Fuqarolik jamiyati.* T.: - 2018. № 1. 7-bet.

6. Vinokurova N.F. *Teoriya i metodika izucheniya globalnykh ekologicheskikh problem na osnove geoekologicheskogo podxoda v kurse shkolnoy geografii: Diss. ... dokt. ped. nauk.* - B.-m., 1999. - 406 s.

7. *Tabiiy fanlar: 6-sinf uchun darslik* / Z. B. Sangirova va boshq. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

8. Musaeva M.E., Umarova Sh.U. *O‘quvchilarda barqaror ekologik madaniyatni rivojlantirishda milliy ma’naviy va hududiy xususiyatlarning ahamiyati* // *Zamonaviy ta’lim,* 2017, № 9, b.42.

9. Nigmatov A.I. *Ekologiya: asosiy atama va iborlarning izohli lugati.* - T., 2002.

10. Saidova O‘.G. *Ekologik madaniyat tarixi va uning rivojlanish bosqichlari.* f.f.n... diss. – T., 2007.